



SIFAT SO'Z TURKUMINI O'RGANISH BILAN BOG'LIQ HOLDA SO'Z BIRIKMASI VA GAP TUZISHGA O'RGATISH USULLARI

Jono'zoqova Sevdora Baxtiyor qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti Pedagogika ta'limi fakulteti Boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'z birikmasi va gap tuzishga o'rgatish usullari yoritilgan. Shuningdek maktab darsliklaridan mashqlar keltirilgan va izohlangan.

Kalit so'zlar: So'z turkumi, sifat, gap, so'z birikmasi, o'quvchi

Аннотация: В данной статье описаны методы обучения учащихся младших классов формированию словосочетаний и предложений в связи с изучением групп слов. Также представлены и объяснены упражнения из школьных учебников.

Ключевые слова: фраза, прилагательное, предложение, фраза, читатель

Abstract: This article describes the methods of teaching primary school students to learn word combinations and sentence formation in secondary schools. Exercises from school textbooks are also presented and explained.



Key words: phrase, adjective, sentence, phrase, reader

Boshlang'ich siflarda sifat so'z turkumini o'rgatish bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan jarayon hisoblanadi. 1 - sinfda sifatning leksik ma'nosi o'rganiladi. Turli xil sifat so'z turkumiga oid so'zlardan foydalaniladi biroq o'quvchilarga sifat so'z turkumi ekani aytilmaydi. Misol uchun 1 - sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1 - qismida har xil rasmlar keltirilgan, ushbu rasmlar qanaqa rangda ekanini topish va daftariga yozish vazifa qilib berilgan. Nanuna: yashil daraxt, oq ayiq, ... Ushbu qismda sifatning qiyosiy darajasi haqida ham qoida keltirilgan ammo qiyosiy daraja deb nomlanmagan. Ikki narsani o'zaro qiyoslaganda so'zga -roq qo'shimchasini qo'shish mumkin. Masalan, katta – kattaroq, tez – tezroq. Akmal hammadan tezroq javob berdi. Nodira sotib olgan narsa menikidan kattaroq. 2-sinfda ham sifatning leksik ma'nosini o'rganish davom ettiriladi. 2 – sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-qismida sifatni o'tganishga doir turli mashqlar berilgan. Odam, hayvon yoki narsalarga xos sifatlarni aniqlash uchun qanday? yoki qanaqa? so'rog'ini beramiz. Masalan: ayyor tulki (qanday tulki?) Quyidagi mashq ham aynan 2- sinf 2-qismdan keltirilgan: turli hayvonlar rasmi berilgan, ushbu hayvonlarning rangi, hajmini qiyoslovchi qarama-qarshi ma'noli so'zlarni ayting. Namuna: oq it – qora it; semiz ot – ozg'in ot...

3-sinfda sifat so'z turkum sifatida o'rganiladi. O'quvchilar matn ichidan sifat so'z turkumiga oid so'zlarni ajratib topa oladilar. 4- sinfda o'quvchilar sifat haqida kengroq ma'lumotlarga ega bo'ladi, sifat turkumiga oid murakkab mashqlarni ham bajaradilar.

Fikr almashish, muloqot gaplar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga gap tuzish, gaplarni to'g'ri o'qish va yozish, gapni mazmunini tushunishga o'rgatish savod o'rgatish davridan boshlanadi. O'quvchilarga nutq, nutqning og'zaki va yozma shaklda bo'lishi, u gaplardan hosil qilinishi haqida tushuncha



beriladi. Bunda kitobdagi mazmunli, o'quvchi bir ko'rgandan gap tuza oladigan rasmlardan foydalaniladi. O'qituvchi berilgan rasm yuzasidan o'quvchilarga qisqa savollar beradi, o'quvchilar esa ko'rib turgan rasmi orqali gap tuzib savollarga javob berishadi. Savod o'rgatish davri tugab o'quvchilar o'qish, yozish ko'nikmalarini egallagandan so'ng, so'z birikmasi va gaplar tuzish kengroq miqyosda o'rgatiladi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o'zlashtirilgani uchun tilni o'rganishda gap ustida ishlashi asosiy o'rin egallaydi. Gap nutqni asosiy birligi hisoblanadi, boshlang'ish sif o'quvchilari ot, sifat, son, fe'l va ularni muhim kategoriyalarini tizimdagi rolini gap orqali bilib oladilar.

1-sinfda o'quvchilarga gap haqida boshlang'ich tushunchalar beriladi. Masalan gap tugallangan fikrni bildirishi, so'zlardan tashkil topishi, gap oxiriga ma'lum tinish belgisi qo'yilishi singari. 2- sinfda o'quvchilar gap haqida nazariy tushunchalarga ega bo'ladilar. Masalan: gap kim yoki nima haqida aytilayotgani, qanday so'roqlarga javob bo'la olishi bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima hisoblanadi. 3- sinf yangi bir bosqich hisoblanadi. O'quvchilar bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni, hokim va tobe bog'lanishlarni, so'zlarni qo'shimchalar orqali bog'lanishi haqidagi malumotlarga ega bo'ldi. 4- sinfda uyushiq bo'laklarni o'rganish bilan gap bo'laklari haqidagi bilimlar oshib boriladi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik materiallar kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida boshqa mavzularga singdirilgan holda gap tuzishga, uni tahlil qilishga o'rgatib boriladi.

Mashq.

Tulki – ayyor

Ayiq – polvon, bahaybat

Ilon -yovuz

Qo'y - yuvosh

Ot -ziyrak

It - vafodor

Sher – kuchli, jasur, qo'rqmas

Tuya – sabrli, chidamli



Eshak – ahmoq

Toshbaqa – imillagan, sekin

To'tiqush – mahmadona, sergap

Hayvonlar ta'riflangan namunadagidek gaplar tuzing va yozing.

Namuna: O'rmonda qo'rqmas sher yashar edi.

Sifat so'z turkumiga oid so'zlarni o'quvchi matn ichidan so'roq berib ajrata olishni o'rgangandan so'ng ushbu "Zig – zag" metodidan foydalansak bo'ladi. Ushbu metod o'quvchilar belgi bildirgan so'zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashga qaratiladi. Sifat so'z turkumi so'zlari ko'p bo'lgan matn tanlanadi, o'quvchilar zig-zag usulida matnni o'qiydilar. Keyin esa sifatlar tushurib qoldiriladi, so'ngra sifatlari bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlab berish uchun uning belgisini bildirgan so'zlardan foydalanilganligi tushuntiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasini shakillantirish muhim sintaktik va nutqiy jarayon hisoblanadi. So'z birikmasi gapning bir qismi sifatida ajratiladi va boshlang'ich sinflarda uning muhim belgilari o'rganiladi. "So'z birikmasi" atamasi boshlang'ich sinf darsliklariga kiritilmagan, ta'rifi berilmaydi. Lekin kichik yoshdagi o'quvchilar quyidagi muhim belgilarni bilishlari kerak:

1. So'z birikmasi mazmun va grammatik tomonlama bog'langan ikki so'z hisoblanadi.
2. So'z birikmasida bir so'z hokim ikkinchi so'z tobe bo'ladi. Hokim so'zdan tobe so'zga so'roq beriladi, tobe so'z shu so'roqqa javob bo'ladigan so'zdir.

So'z birikmasi leksik-grammatik birlik bo'lib, tugallangan fikr ifodalamaydi va shu jihati bilan gapdan farqlanadi. So'z birikmasi nutqda gap ichida ishlatiladi.


Mashq: Matndan so'z birikmalarini toping va daftaringizga yozing.



Mana bugun men kutubxonadan yangi kitob oldim. Kitobim menga juda ham qiziq tuyular edi. Tezroq uyga borsamda mutolaani boshlasam. Men uchun kitob o'qimoq, bog'ni sayr qilishdan ko'ra qiziqroq. Ammo uyga kelganimda birinchi bo'lib ukamni o'ynatdim, oyimga uy ishlarini qilishga yordam berdim. So'ngra dars qilishga kirishdim.

Har bir so'z turkumida so'z yasallishining xarakterli xususiyatlari mavjud. 3- sinf o'quvchilari gapdagi so'z birikmalarini topadilar, ammo u so'z birikmasidagi so'zlar o'zaro qanday, ya'ni nimalar yordamida bog'langanini tushuntira olmaydilar. 4- sinf o'quvchilari gapdagi so'z birikmasini topadilar va so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar o'zaro so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar yoki ohang yordamida bog'langanini tushunadilar, bog'lanish grammatik vositalar bilan ifodalanishini ko'rsatadilar.

So'z birikmasi tarkibidagi so'zlardan biri hokim, ikkinchisi tobe bo'ladi. So'z birikmasi boshqaruv, bitishuv, moslashuv usullari orqali hosil bo'ladi. So'z birikmasi gapdan farqlanadi. Gap fikr bildirib kommunikativ (aloqa qilish), kognitiv (fikr almashish) vazifalarini bajaradi. So'z birikmasi esa tushuncha ifodalab nominativ (nomlash, atash) vazifasini bajaradi.



So'z birikmalari tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

- 1) oddiy so'z birikmalari
- 2) murakkab so'z birikmalari



Soʻz shakli bilan soʻzning yoki ikki soʻz shaklining bogʻlanmasi oddiy soʻz birikmasi hisoblanadi: keng dala, maktab hovlisi... Biror qismi frazeologik ibora yoki murakkab tushunchani bildiradigan turgʻun birikma bilan ifodalanadigan soʻz birikmasi ham oddiy soʻz birikmasiga misol boʻladi. Masalan: yulduzni benarvon uradigan odam, yogʻ tushsa yalagudek qiz...

Birikmaning qismlaridan biri yoki har ikkisi soʻz birikmasi bilan ifoda etiladi. Masalan: oliy maʼlumotli mutaxasis, mehnat qilishni sevadigan odam...

Soʻz birikmasi haqidagi yuqorida keltirib oʻtilgan maʼlumotlar boshlangʻich sinflarga oʻrgatilmaydi, lekin soʻz birikmasini oʻrganishning asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Qosimova K., Matjonov S., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili oʻqitish metodikasi. – T.: “Noshir”, 2009
2. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Saʼdullo Quronov, Shokir Tursun. Ona tili va oʻqish savodxonligi 1- sinf darslik. Toshkent – 2021; 1-2- qismlar
3. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Saʼdullo Quronov, Shokir Tursun. Ona tili va oʻqish savodxonligi 2- sinf darslik. Toshkent- 2021; 1-2- qismlar
4. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Saʼdullo Quronov, Shokir Tursun, Zeboxon Roʻzmetova. Ona tili va oʻqish savodxonligi 3- sinf darslik. Toshkent- 2022; 1-2- qismlar